

## TADBIRKORLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING GENDER XUSUSIYATLARI

*Ulug'ova Shakhlova Musliddinovna,*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc), Psixologiya  
va sotsiologiya kafedrasi*

<https://orcid.org/0000-0002-2436-2116>

*Annotatsiya: maqolada tadbirkorlarda bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvining gender xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Tadbirkorlarning kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik xususiyatlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Tadbirkorlarning ruhiy-asab barqarorligi, kommunikativ va axloqiy me‘yorlarga moslik xususiyatlari ochib berilgan.*

*Tayanch so‘zlar: gender xususiyatlari, ruhiy-asab barqarorligi, kommunikativ xususiyatlari, axloqiy me‘yorlarga moslik xususiyatlari, moslashuvchanlik qobiliyatları.*

## ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ

*Улугова Шахлода Муслиддиновна,*

*Доцент Бухарского государственного университета,  
доктор психологических наук (DSc), кафедра психологии и социологии*

*Аннотация: В статье рассматриваются гендерные особенности социально-психологической адаптации предпринимателей к рыночным отношениям. Представлен сравнительный анализ особенностей социально-психологической адаптации предпринимателей к профессиональной деятельности. Выявлены особенности психоневрологической устойчивости предпринимателей, соответствия коммуникативным и этическим нормам.*

*Ключевые слова: гендерные особенности, психоневрологическая устойчивость, коммуникативные свойства, особенности соответствия этическим нормам, адаптивные способности.*

## GENDER PECULIARITIES OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF ENTREPRENEURS

*Ulugova Shakhlova Musliddinovna,*

*Associate professor of Bukhara State University,  
doctor of psychological sciences (DSc), Departament of psychology and sociology*

*Annotation: The article discusses the gender characteristics of the socio-psychological adaptation of entrepreneurs to market relations. A comparative analysis of the features of the socio-psychological adaptation of entrepreneurs to professional activity is presented. The features of the psychoneurological stability of entrepreneurs, compliance with communicative and ethical standards are revealed.*

*Keywords: gender characteristics, neuropsychiatric stability, communicative properties, features of compliance with ethical standards, adaptive abilities.*

Jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga, balki ushbu munosabatlar subyektlari bo‘lmish shaxsning psixologiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda fanda shakllangan gender muammosiga nisbatan faol qiziqish

erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini o'rganish bilan bog'liq. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning doimiy rivojlanishi gender xulq-atvorining ko'plab psixologik jihatlari kam o'rganilganligi va bu iqtisodiy xulq-atvorning nozik xususiyatlariga va xususan tadbirkorlar faoliyatiga to'liq taalluqligi bilan bog'liqdir.

Tadbirkorlarning o'zaro munosabatlaridagi gender farqlarini o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish ijtimoiy-psixologik muammolar mavjudligidan kelib chiqadi.

Psixologiyada gender tadqiqotlarida o'sish kuzatilmoqda, ammo tadbirkorlik, ishbilarmonlik ta'sirining omili sifatida jins deyarli o'rganilmagan, gender va gender farqlarini o'rganishga ijtimoiy-psixologik yondashuvlar aniq belgilanmagan, erkak va ayol tadbirkorlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar deyarli yo'q.

Zamonaviy erkaklar va ayollar nafaqat bir-birlari bilan, balki jamiyat va o'zaro munosabatlarning yangi turlarini namoyish etadilar. Bu o'zgarishlar ilmiy tahlil va chuqur izlanishni talab etadi. Ijtimoiy-psixologik omillar esa gender tadqiqotlarda ham, nazariy tadqiqotlar sohasida ham, kundalik hayot amaliyoti sohasida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha (masalan, X.R. Xaydarova), jins ulg'ayishi yoshlik va o'smirlik davrida faollashsada, jinsiy identifikatsiya, rollar differensiatsiyasi sohasida shaxsning harakat qilishi bir umr davom etuvchi jarayondir.

T.V.Bendasning ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, psixologiya fanida statistik ma'lumotlarni qo'llash, jinslar o'rtasidagi farqlarga oid ma'lumotlarni talqin etishda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor berish taklif qilinadi:

1) erkak va ayollar o'rtasidagi u yoki bu jins sifatlaridan birining ustunligi kamida 10%ni tashkil etsa, bu farqni inobatga olish mumkin;

2) biror jinsn u yoki bu sohadagi faolligini baholar ekanmiz, u kamida 20% natijani qo'lga kiritgandagina, bu ko'rsatkichga e'tibor qaratilishi lozim (bu degani, tekshiriluvchilar va ekspertlarning har beshinchisi bir xil fikrda ekanligidan dalolat beradi).

Bizningcha, bozor munosabatlari sharoitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvda namoyon bo'luvchi va jamiyat miqyosida amal qiluvchi jinsga oid farqlar shaxs ijtimoiylashuvi davomida orttirilgan bo'lib, asl mohiyati jihatidan ularning tasavvurlari doirasidan o'rinn oladi. Shu munosabat bilan ijtimoiy tasavvurlar, bu tasavvurlarda jinslarga oid farqlar (moslashish)ning amal qilishini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Aynan shunday o'ziga xoslikning mavjudligi uchun tadqiqot davomida biz tadbirkor erkak va tadbirkor ayollar o'rtasidagi gender xususiyatlarni o'rganishni alohida vazifa qilib qo'ydk.

Respondentlarni tadbirkor erkak va tadbirkor ayollarga ajratishimiz orqali bir qator yangi ma'lumotlar olishga tuyassar bo'lishimiz shubhasiz. Mazkur izlanish bosqichida tadqiqot metodikalarni qo'llashdan olingan miqdoriy qiymatlari maxsus tarzda tadbirkor erkak va tadbirkor ayollarga ajratilib, ular o'zaro qiyosiy o'rganildi.


Tadbirkorlarning kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik xususiyatlari ko'rsatkichlari (n=590)

#### № Ijtimoiy-psixologik xususiyatlar

№	Ijtimoiy-psixologik xususiyatlar	Respon dentlar	XK-SS <sub>t</sub> n=72		K <sub>t</sub> n=248		R <sub>t</sub> n=116		T <sub>t</sub> n=154	
			T <sub>e</sub> n=45	T <sub>a</sub> n=2	T <sub>e</sub> n=10	T <sub>a</sub> n=14	T <sub>e</sub> n=9	T <sub>a</sub> n=2	T <sub>e</sub> n=10	T <sub>a</sub> n=4
1.	ruhiy-asab barqarorligi (RAB)	soni	10	5	36	53	17	4	9	3
		%	22,2	18,5	33,6	37,6	18,7	16	8,3	6,5
2.	kommunikativ xususiyatlar (KX)	soni	15	7	22	32	32	7	34	12
		%	33,3	26	20,6	22,7	35,1	28	31,5	26,1
3.	axloqiy me'yorlarga moslik (AMM)	soni	7	5	19	20	22	6	19	9
		%	15,6	18,5	17,8	14,2	24,2	24	17,6	19,6
	moslashuvchaniqlik qobiliyati (MQ)	soni	32	17	77	105	71	17	62	24
		%	71,1	63	72	74,5	78	68	57,4	52,2

Fikrimizcha, shaxsning ijtimoiy muhitsharoitlariga faol moslashishiko ‘plab subyektiv va obyektiv sabablarga bog‘liq. Bu yerda neyropsixik jarayonlarning xususiyatlarini, tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan genetik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, har bir shaxs o‘ziga xos xulq-atvorga, «oldindan tashxislab bo‘lmaydigan» xarakterga ega. Biroq, shaxsning psixik normasi hisoblangan reaksiyalarning ma’lum bir sohasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, insonning muayyan umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini axloqiy me’yor sifatida aniqlash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu me’yorlar doirasida o‘zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga ijodiy va faol moslashish qobiliyati shaxsiy moslashish qobiliyatları bilan belgilanadi.



Tadbirkor shaxsining bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvining gender xususiyatlarini o'rganish maqsadida olib borilgan metodika natijasiga ko'ra, tadbirkorlarning 3 xil: ruhiy-asab barqarorligi (RAB), kommunikativ xususiyatlar (KX) va axloqiy me'yorlarga moslik (AMM) xususiyatlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, tadbirkor erkaklarda ruhiy-asab barqarorligi (20,5%), tadbirkor ayollar(27,2%) ga qaraganda past natijani ko'rsatgan. Kommunikativ xususiyatlar bo'yicha erkaklar jamoasi(29,3%) ayollar jamoasi(24,3%)dan biroz ustunlik qiladilar. Axloqiy me'yorlarga moslik darajasida ham tadbirkor erkaklar(19,1) tadbirkor ayollar(16,7)ga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganlar.

Metodikaning yo'riqnomasiga ko'ra, biz yuqoridagi 3 xil xususiyatlar natijalari yig'indisidan tadbirkorlarning moslashuvchanlik qobiliyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'lilik va quyidagi natijalar haqida ma'lumotga ega bo'lilik: erkak tadbirkorlar 68,9%ni, ayol tadbirkorlar 68,2%ni tashkil qiladi.

Olingen natijalarni tavsiflashda o'rtachadan past va o'rtachadan yuqori darajalarga ajratiladi.

Ruhiy-asab barqarorligi (RAB) xususiyati bo'yicha o'rtachadan past darajani ko'rsatgan tadbirkorlarda xulq-atvorni tartibga solishning quyi darajasida asab-psixik buzilishga moyillik bo'ladi va o'zini o'zi, voqelikni idrok etishiga ko'ra real baholay olmaydi. O'rtachadan yuqori darajadagi tadbirkorlarda asab-psixik barqarorligi va xulq-atvorini tartibga solish yuqori darajada bo'lib, ular o'zini o'zi va voqelikni idrok etishiga ko'ra real baholay oladi.

Kommunikativ xususiyatlar (KX) bo'yicha o'rtachadan past darajani ko'rsatgan tadbirkorlarda kommunikativ qobiliyatlar quyi darajada rivojlangan, atrofdagilar bilan munosabat o'rnatishda qiynaladi, yuqori aggressivlik, nizolashuvga moyillik yuqori bo'ladi. O'rtachadan yuqori darajadagi tadbirkorlarda esa kommunikativlik qobiliyatları yuqori darajada rivojlangan bo'ladi, ular atrofdagilar bilan oson munosabatga kirishadilar va nizolashuvga moyil emaslar.

Axloqiy me'yorlarga moslik (AMM) bo'yicha o'rtachadan past darajani ko'rsatgan tadbirkorlar o'zining jamoadagi va guruhdagi o'rni va rolini mos baholay olmaydi. Umumqabul qilingan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilishga intilmaydi. O'rtachadan yuqori darajadagi tadbirkorlar o'zining jamoa va guruhdagi o'rni va rolini real baholaydi, umumqabul qilingan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilishga yo'nalgan bo'ladilar.

Moslashuvchanlik qobiliyatları bo'yicha yuqori darajani ko'rsatgan tadbirkorlar yangi faoliyat sharoitlariga oson moslashuvchan, yangi jamoaga oson kirishib ketadi va vaziyatlarga mos harakat qiladi, o'zining xatti-harakati va xulq-atvorini vaziyatlarga tez muvofiqlashtiradi. Odatta nizoga moyil emas, yuqori emotsiyal barqarorlikka ega.

O'rtacha (qoniqarli darajada) moslashuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan tadbirkorlar har xil xarakter aksentuatsiyasi alomatlariga egadirlar, ya'ni odatdagagi sharoitlarda qisman xatti-harakatlarini to'ldirishga to'g'ri keladi va faoliyatni o'zgartirib turishlari mumkin. Shu sababli ularning moslashuvi tashqi sharoitlarga bog'liq. Bu toifa nomzodlar odatta yuqori emotsiyal barqarorlikka ega emas. Asotsial buzilishlarga yo'l qo'yadilar, aggressivlikni namoyon qiladi va nizoga moyil.

Moslashuvchanlik darajasi past bo'lgan tadbirkorlar xarakterida aniq aksentuatsiyalar va ayrim psixopatiya alomatlari mavjud bo'ladi. Asab-psixik buzilishlar uchraydi. Bu toifa nomzodlar asab-psixik barqarorligi past, nizoli, sotsial xulq-atvorga zid xatti-harakatlar sodir qiladi. Psixologlar nazoratini talab etadi.

Moslashuv jarayonining natijasi bo'lgan moslashuvchanlik holati, ya'ni insonning haqiqiy moslashish holati va darajasi, uning ijtimoiy mavqeい va o'zini o'zi idrok etish darajasi yoki noto'g'ri moslashishi holatlarini biz yangi ijtimoiy muhitda uzoq davom etadigan noqulaylikning barqaror holati sifatida tushunamiz.

### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Бендаш Т.В. Психология лидерства: Гендерный и этнический аспекты – СПб.: 2002. С. 545.
- 2.Филиппов А.В. Работа с кадрами. Психологический аспект. М.: Экономика, 2000. С. 231.
- 3.Маслоу А. Мотивация и личность. СПб.: Питер, 2003. С. 352
- 4.Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi // O‘quv qo‘llanma. – 137 T., 2006.-142 b.
- 5.Улугова Ш.М., Акрамов А.А. “Тадбиркорлик шахси фаолиятида иқтисодий жараёнлар”. “Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness”. Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.B - 156-160.